

TEKNOLOGIYA TALIMI O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN SHAXSIY VA KASBIY KOMPETENTLIGI KVALIFIKATSION TALABLARI

Abdullayev Safibullo Xabibullayevich,

NamDPI, Aniq fanlar kafedrası professori, (DSc).

E-mail: safibullo.abdullaev@gmail.com +998905982070

Uluxanov Ibroxim Tuxtaxo'jayevich

NamDPI, Aniq fanlar kafedrası professori, (f-m.f.n).

E-mail: ibrohimuluhanov@gmail.com +998942722552

Tursunov Farkhod Ermakbaevich

AndDPI, Fizika va texnologik ta'lim kafedrası dotsent v.b.

E-mail: farxodbek68@gmail.com +998997286812

Annotatsiya: Ushbu maqola texnologiya ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan shaxsiy va kasbiy kompetentlik kvalifikatsion talablarini tahlil qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida texnologiya o'qituvchisi nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki pedagogik mahorat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va ijodkorlikka yo'naltirish kabi ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim. Maqolada o'qituvchining shaxsiy sifatleri, pedagogik qobiliyati, kasbiy bilim va ko'nikmalari, shuningdek, ularning zamonaviy talablarga mosligi masalalari yoritib beriladi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: muammoli vaziyat, kasbiy fazilat, maxsus qobiliyat, kreativlik, tafakkur.

КВАЛИФИКАЦИОННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЛИЧНОСТНЫМ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ КОМПЕТЕНЦИЯМ УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация: В данной статье анализируются квалификационные требования, предъявляемые к личностным и профессиональным компетенциям учителя технологии. В современной системе образования учитель технологии должен не только глубоко знать свой предмет, но и обладать педагогическим мастерством, навыками применения информационно-коммуникативных технологий, умением направлять учащихся к самостоятельному мышлению и творчеству. В статье рассматриваются личностные качества учителя, его педагогические способности, профессиональные знания и умения, а также их соответствие современным требованиям. Кроме того, представлены предложения по совершенствованию системы повышения квалификации и стимулирования учителей.

Ключевые слова: проблемная ситуация, профессиональное качество, специальные способности, креативность, мышление.

QUALIFICATION REQUIREMENTS FOR PERSONAL AND PROFESSIONAL COMPETENCIES OF A TECHNOLOGY TEACHER

Abstract: *This article analyzes the qualification requirements for the personal and professional competencies of a technology teacher. In the modern education system, a technology teacher should not only have a deep knowledge of their subject but also possess pedagogical skills, the ability to apply information and communication technologies, and the ability to guide students towards independent thinking and creativity. The article examines the teacher's personal qualities, pedagogical abilities, professional knowledge and skills, as well as their compliance with modern requirements. In addition, suggestions for improving the system of professional development and incentives for teachers are presented.*

Keywords: *problem situation, professional quality, special abilities, creativity, thinking.*

KIRISH

Kasbiy shakllanish jarayonida bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarining individual xususiyatlarini o'rganish, o'zlashtirish jarayonini tashkil etish hamda uning natijalarini baholash muhimdir. Tuzilishi nuqtai nazaridan mutaxassis modeli uni o'zgartirish va tuzatish imkonini beruvchi, faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi va oson tashhis (diagnostika) qilinadigan tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi zarur. Ikki qismli tuzilmaga ega bo'lgan mutaxassis modeli eng ko'p tarqalgan model hisoblanadi. Mutaxassis modeli - bu ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlovchi, ma'lum sifatlarni ta'riflovchi hamda kasb egasining mustaqil bilim olishi va o'zini rivojlantirishini aks ettiruvchi andoza hisoblanadi.

Ushbu modelni yaratishda kasbiy faoliyatning ma'lum turi uchun muvofiq keladigan shaxsiy sifatlar to'plami tartibga solinadi. Mutaxassis modelining turlaridan biri malakaviy tavsifnoma hisoblanadi. Uning mazmunida quyidagi holatlar aks etadi: turli lavozim va turli ish joylari uchun xos bo'lgan kasbiy faoliyat turlari, vazifa va majburiyatlar, shaxsiy sifatlar, bilim va ko'nikmalar. Bunday modellar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularni attestatsiyadan o'tkazish, shuningdek, mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi avvalo ta'lim mazmunini loyihalashtirish bilan bog'liq quyidagi mahoratlar tizimini egallab olishi kerak: o'qitish maqsadlarini (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish) konstruktiv tasvirlash; o'quvchilarda ma'lum kasb faoliyati bo'yicha bilim, ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash; ushbu ko'rsatkichlarning aks etishiga imkon beruvchi chizmalar, sxemalar, loyihalar, texnik-texnologik hamda tashkiliy-iqtisodiy mashqlar va ta'lim metodlari, shaklini to'g'ri tanlash; ularning ketma-ketligini aniqlash; o'quvchilar tomonidan nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarning shakllantirilishi va hokazolar borasidagi zarur ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlovchi ko'rsatkichlarni aniqlash[1-2].

O'quv faoliyatining zarur tarbiyaviy natijasini aniqlashga xizmat qiluvchi mahoratlar alohida tizimni tashkil etadi. Ma'naviy dunyoqarash va uning mohiyati hamda umumiy madaniyatlilik darajasiga qo'yiluvchi talablarni o'z ichiga oladi[3].

Texnologiya fani o'qituvchisi o'z kasbini yanada chuqurroq o'rganishi bir qator metodlarni birgalikda qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin[6]. Mehnat faoliyatining umumiy (ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy, sanitariya-gigiyenik) xususiyatlari eng ommalashgan kasbiy tavsifnomada kasbiy faoliyatning maqsadi, predmeti, usuli, natijalarni baholash mezonlari, zarur malakaviy xususiyatlari, vositasi, sharti, tashkil etilishi, mehnat kooperatsiyasi, mehnat omilkorligi, xavf-xatar turlari va ularning ishchi hayoti va faoliyatiga bo'lgan salbiy ta'siri yoki faoliyat natijasi uchun foydasi kabi holatlar o'z aksini topadi[4-5]. Bizning nazarimizda kasbiy tavsifnoma mazmunida, yana shuningdek, kasbiy jihatdan tayyorlash va qayta tayyorlash, alohida psixologik sifatlarini mashq qildirish, o'zgartirish, o'rnini to'ldirish, kasbiy malakani oshirish va turdosh kasbga yo'naltirish (shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olish asosida) masalalarining yoritilishi maqsadga muvofiqdir[7].

Buyuk Britaniyalik olim M.Rozenberg[9] o'qituvchi faoliyatining to'qqiz yo'nalishi va ularga nisbatan qo'yiluvchi quyidagi kasbiy talablarni ishlab chiqdi:

- o'quvchilarning talab va ehtiyojlarini bilish;
- faoliyat samaradorligini baholay olish;

- o'quv dasturlarini ishlab chiqa olish layoqatiga egalik;
- kasbiy mahoratga ega bo'lish;
- maslahatchi bo'la olish;
- kommunikabellik layoqatiga ega bo'lish;
- ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyatiga egalik;
- doimiy ravishda kasbiy mahoratni takomillashtirib borishga erishish;
- shaxsini madaniy jihatdan takomillashuviga erishish.

L.M.Mitina[10] o'qituvchilik faoliyati mohiyatiga tayangan holda bo'lajak o'qituvchini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlash modeli quyidagi uchta o'zaro bog'liq yo'nalish asosida namoyon bo'lishini qayd etib o'tadi: 1) talabaning shaxsi; 2) talabaning o'quv-o'rganish faoliyati; 3) talaba tomonidan tashkil etiluvchi ijtimoiy munosabatlar.

Ayrim kasbiy tavsifnomalarda, yana shuningdek, quyidagi holatlar ham yoritiladi:

- a) ta'lim olish sabablari;
- b) o'quv topshirig'i sifatida taklif etiladigan va o'quvchilar tomonidan qabul qilinadigan ta'limiy masalalar (pedagogik amaliyot jarayonida har bir talaba ijobiy hal etilishi talab etiluvchi pedagogik masalalarga duch keladi);
- v) ta'limiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish asosida o'qish-o'rganish masalalarini hal etish;
- g) o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchining asta-sekin faoliyatini nazorat qilish va o'ziga baho berish layoqati takomillashib boradi, bu holat o'quvchilar faoliyatini ham nazorat qilish va baholashda alohida ahamiyatga ega.

So'nggi paytlarda taklif etilayotgan tahliliy kasbiy tavsifnomada «kasbiy faoliyat va shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatleri, uning alohida jihatlari emas, kasb (yoki kasbiy faoliyat)ning psixologik tuzilmasini umumlashtiruvchi meyoriy va morfologik ko'rsatkichlar» yoritiladi. Shaxsiy va kasbiy sifatlar va ularning qiyosiy nisbati, kasbiy tavsifnomalarda o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri hamda ko'rsatkichlari yetarlicha tizimlashtirilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Texnologiya fani o'qituvchisi shaxsi va kasbiy faoliyatini modellashtirishga nisbatan yondashuvlarning turlicha bo'lishiga qaramay, ilmiy tadqiqotlarda kasbiy pedagogik tayyorgarlik tizimida texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy kamoloti, shuningdek, kasbiy tayyorlash jarayonining modelini yaratish muammosi tadqiq etilmagan.

Texnologiya fani o'qituvchisi quyidagi metodlar orqali o'z kasbini yanada chuqurroq o'rganishi mumkin.

1. Nazariy tahlil: Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, normativ hujjatlar, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish. Bu metod orqali texnologiya ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarning nazariy asoslari aniqlanadi.

2. Taqqoslash: Turli davlatlar yoki ta'lim tizimlaridagi texnologiya o'qituvchilariga qo'yiladigan talablarni taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash mumkin.

3. So'rovnoma: Texnologiya o'qituvchilari, o'quvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali ularning fikr-mulohazalari, ehtiyojlari va takliflarini o'rganish. So'rovnomalar yopiq yoki ochiq savollar asosida tuzilishi mumkin.

4. Intervyu: Texnologiya o'qituvchilari, ta'lim mutaxassislari va boshqa soha vakillari bilan chuqur intervyular o'tkazish orqali mavzuni har tomonlama o'rganish. Intervyular strukturaviy yoki yarim-strukturaviy bo'lishi mumkin.

5. Kuzatish: Texnologiya darslarini kuzatish orqali o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy kompetentligini amalda baholash. Kuzatish natijalari maxsus shakllar yordamida qayd etiladi.

6. Eksperiment: Ta'lim jarayonida yangi metodlar, texnologiyalar va yondashuvlarni qo'llab, ularning samaradorligini eksperimental tarzda tekshirish. Eksperiment nazorat guruhi va eksperimental guruh o'rtasida o'tkazilishi mumkin.

7. Statistik tahlil: So'rovnoma, kuzatish va eksperiment natijalarini statistik tahlil qilish orqali xulosalar chiqarish va tavsiyalar berish.

8. Model yaratish: Texnologiya fani o'qituvchisining ideal modeli yoki kompetentlik profilini yaratish. Bu model amaliyotda o'qituvchilarni tayyorlash va baholashda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tahliliy kasbiy tavsifnomada quyidagi ikki blokning alohida qayd etishning zarurligini ta'kidlaymiz:

1) ma'lum shaxsga bog'liq bo'lmagan va ijtimoiy tajribalarga asoslanuvchi kasbiy faoliyatning obektiv xususiyatlarini tavsiflash;

2) obektiv faoliyatga simmetrik, biroq u bilan mos kelmaydigan psixologik mazmunga ega faoliyat va uning sifatlarini tavsiflash.

Boshqacha qilib aytganda, analitik professiogrammada kasbiy faoliyat meyor, psixologik tuzilmasi hamda ishchining psixologik sifatleri alohida qayd etiladi. Psixologik tavsifnoma (psixogramma - mutaxassisning ma'naviy-axloqiy va ruhiy qiyofasi) kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishda ijtimoiy-kasbiy munosabatlar, kasbiy jihatdan o'sish, shuningdek, sodir bo'lish ehtimoli bo'lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun talab etiluvchi psixologik sifatleri muhim ahamiyat kasb etadi, ularning sirasiga quyidagilar kiradi:

1) shaxsiy ehtiyojlar, hayotiy maqsad, vazifalar, talablar, qiziqishlar, shaxs ishtirokida tashkil etiluvchi munosabatlar mazmuni, qadriyatli yo'nalishlar, psixologik pozitsiya;

2) kasbiy intilishlari, talablari, kasbiy jihatdan o'zini baholash, o'zini mutaxassis sifatida anglash;

3) psixik holat va hissiy (emotsional) qiyofa;

4) mehnat, uni tashkil etish jarayoni va natijalardan qoniqish (mutaxassisning operatsional xususiyatlari);

5) mehnat va kasb borasidagi psixologik bilimlar;

6) psixotexnologiyalar, psixologik harakatlar, usullar, metodlar, mahorat va texnikasi (ularning, shaxsning o'zi va boshqalarga ta'siri);

7) kasbiy qobiliyat, kasbiy salohiyat, kasbiy jihatdan o'sish imkoniyatlari;

8) kasbga xos, shu jumladan, ijodiy fikrlash, kasbiy tajribani boyitish imkoniyatlari;

9) kasbiy jihatdan o'sishni rejalashtirish va rivojlanish;

10) psixologik ziddiyatlar (kasbiy faoliyatga mutlaqo yoki muayyan darajada mos kelmaydigan psixik sifatlar, bu o'rinda kasbga xos operatsional ziddiyatlarni aniqlab olish maqsadga muvofiqdir);

11) kasbiy jihatdan o'sish yo'nalishlari.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan kasbiy-pedagogik faoliyatni modellashtirishga oid tahlillarimiz hamda biogenetik, ijtimoiy-genetik hamda madaniy genetik jarayonlarni qiyosiy o'rganishimiz asosida texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashning masalali-faoliyatli modeli ishlab chiqildi. Mazkur model madaniy genetik jarayon negiziga qurilib, unda o'qituvchi rahbarligida hamda mustaqil ta'lim olish bilan bog'liq ta'lim shakllari asos sifatida olindi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda zamonaviy ta'lim turi sifatida masofali ta'lim texnologiyasini ishlab chiqdik. Ishlab chiqilgan modelga ko'ra pedagogik, texnik-texnologik muammoli vaziyatli topshiriqlar texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda pedagogik, umummuhandislik hamda ixtisoslik turkumi fanlari uyg'unligini ta'minlab, texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini yuqori sifat darajasiga ko'taradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.Mirziyoyev. 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston respublikasi prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
3. Abdullaev S. X. O'qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2021. – №. 9 (106). – S. 28-36.
4. Abdullaev S. X., Tursunova Sh. B. Texnologik ta'lim sifatini oshirishda bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining o'rni //Ijodkor o'qituvchi. Toshkent. – 2021. – S.347-355.
5. Abdullaev S. X. Pedagogik ergonomika va o'qituvchi ergonomik madaniyatining tashkiliy asoslari //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2020. – №. 8 (93). – S. 61-68.
6. Abdullayev S.X. Ergonomik yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi ergonomik kompetentligini takomillashtirish metodikasi //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 842-846.

7. Ulukhanov I.T., Khusainova G.A., Ubaydullaev S.K. Pedagogical conditions for the formation of creative competence of students. web of scientist: international scientific research journal. ISSN: 2776-0979. Volume 3, Issue 5, May. 2022. Impact factor(2022):7,565.
8. Ulukhanov I.T., Khusainova G.A., Ubaydullaev S.K. O'quvchilarning kreativ kompetentlikini shakllantirish mezonlari. scientific journal of scientific progress. VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601. 814-828 b.
9. I.T.Uluxanov(NamDU, S.Ubaydullaev(AnDU). Texnologiya darslarida nazorat-o'lchov asboblariidan foydalanishning amaliy ahamiyati. "Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar amaliyotga, muammolar va yechimlar". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 2020. 27 may.
10. I.T.Uluxanov, G.Xusayinova, M.Turg'unpo'latov. Moylovchi materiallar va ulardan samarali foydalanish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. 2021 yil. 3-son. 386-389.
11. I.T.Uluxanov, G.Xusayinova, Z.Quvvatova. Texnik fanlarni asoslarini o'rganishda ekologik masalalar yechimi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. 2021 yil. 3-son. 394-398..fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.– T.: 2009.–233 b.